

SHARTNOMA № 3

Beshariq tumani

«31» yanvar 2022 yil.

Bizlar ushbu siqilgan gaz sotish shartnomasini tuzuvchilar bir tomondan " METAN GAZ BARAKALI" MCHJ nomidan rahbari M.M.Rasulov kelgusida «Yetkazib beruvchi» deb nomlanadi va ikkinchi tomondan Beshariq tumani hokimligi moliya bo'limi nomidan A.Egamnazarov kelgusida «Sotib oluvchi» deb nomlanib, quyidagi kelishuv shartnomasini tuzdik:

1.Shartnoma mazmuni.

1.1. "Yetkazib beruvchi" quyidagi mahsulotni sotish, "Sotib oluvchi"oldindan 100% to'lash sharti bilan sotib olish majburiyatlarini oladilar:

1.2.Siqilgan gaz (metan)ni "Sotib oluvchi"ning avtotransport vositasiga yetkazib berish jamiyatga qarashli avtomobillarga siqilgan gaz to'ldirish stantsiyasi (AGNKS) orqali amalga oshiriladi:

1.3. Siqilgan gaz (metan) avtomobilga quyish avtomobilga quyilgan sana ushbu shartnoma bo'yicha tovar yetkazib berilgan sana hisoblanadi.

2.Mahsulotni yetkazib berish va hisob-kitob tartibi.

2.1. Umumiy shartnoma bahosi **1 500 000 (Bir million besh yuz ming)** so'm

Soliq, xomashyo, materiallar, elektr resurslari, Qonunchilikka ko'ra tabiiy gaz bahosidagi o'zgarishlar siqilgan gazni sotish bahosiga o'zgarish kiritishga olib keladi.

2.2. Hisob-kitob siqilgan gaz (metan) avtomobilga quyilgan sanadagi baho bo'yicha amalga oshiriladi, oy yakuni bilan hisob-faktura taqdim etiladi.

2.3. "Yetkazib beruvchi" tomonidan bir oy uchun buyurtma summasi oldindan 100% to'langanidan keyin "Yetkazib beruvchi" tomonidan siqilgan gaz yetkazib beriladi.

3.Taraflarning huquqlari,shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarligi.

3.1. "Yetkazib beruvchi":

- avtomobil haydovchisida guvohnoma, yo'llanma, gaz ballonini o'rnatish va sinovdan o'tkazish dalolatnomalari mavjudligi tekshiriladi.

- avtomobil xaydovchisi AGNKSda belgilangan joyda yo'lovchilarini tushirib, faqat o'zi avtomobilda kalonka tomonga texnika xavfsizligi saqlagan,navbatni, boshqa qoidalarni buzmaganda holda kirishini nazorat qiladi;

- oldindan to'liq to'lov (hisob-kitob) amalga oshirilgan taqdirda, asossiz siqilgan gaz yetkazib berishni to'xtatsa, har bir holatda olinmay qolgan gaz bahosining 0.5% miqdorida jarima to'laydi.

3.2. "Sotib oluvchi":

- siqilgan gaz olish huquqiga egaligi haqidagi barcha zarur hujjatlar taqdim qilishi lozim.

- avtomobilning texnik holatiga javobgar bo'ladi;

- agar oldindan to'lovdan qarzdorligi mavjud bo'lib, gaz olgan taqdirda, har bir kunga muddati o'tgan qarzning 0.5% miqdorida; umumiy qarzni 50% dan oshmagan miqdorida jarima to'laydi.

4.Fors-major holati.

4.1. Taraflarning biri yong'in, suv toshqini, yer qimirlashi, epidemiya tarqalishi, avariya, tabiiy ofat, texnik nosozlik va boshqa o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablar bilan majburiyatini to'liq yoki qisman bajarmagan fors-major holati hisoblanadi. Fors-Major holati isbotlanishiga ko'ra taraflarning majburiyatini to'la yoki qisman bajarmagan uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

5.Qo'shimcha shartlar.

5.1. Shartnoma tuzilgan paytidan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo'lib qoladi.

5.2. Shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki qisman bajarilmaganligi sababli jarima to'lash yoki moddiy zararni qoplash (zararni asl holatida tiklash) asosiy majburiyatni bajarishdan ozod qilmaydi.

5.3. Solishtiruv dalolatnomasini tasdiqlovni rad etgan taraf eng kam ish haqining 5 barobari miqdorida jarima to'laydi.

6.Nizolarni hal qiluv tartibi.

6.1. Nizolarni hal qilish o'zaro kelishuv yo'li bilan yechiladi.

6.2. Taraflar orasida kelishuvga erishilmagan nizolar huquqni himoya qilish organlari yoki iqtisodiyot sudi orqali tartibga solinadi.

6.3. Shartnoma 2 (Ikki) nusxada tuzildi. Ular teng yuridik kuchga ega. Taraflarda bir nusxadan saqlanadi,muddati «31» 01 2022 yildan «25» 12 2022 yilgacha.

7.Tomonlar bank rekvizitlari va manzilgohlari.

"Yetkazib beruvchi"

"METAN GAZ BARAKALI" MCHJ
Manzil: Farg'ona vil. Beshariq tumani
Beshariq ko'chasi 3-uy
Bank: Toshkent sh.AT "Aloqabank"ning bosh ofisi
X/R: 20208000505040357001
MFO: 00401 , INN: 306 249 863

Rahbar: _____ M.M.Rasulov

"Sotib oluvchi"

Beshariq tumani hokimlig moliya bo'limi
Manzil:Beshariq shahri Oltin vodiy
ko'chasi 94-uy
Bank:Toshkent shahar Markaziy bank
SHX/R: 10002286030215701131209201
MFO:00014 INN:200155309

Rahbar: _____ A A Fgamnazarov



Beshariq tuman hokimligi moliya bo'limi hamda " METAN GAZ BARAKALI " MCHJ o'rtasidagi umumiy summasi 1 500 000 sum bo'lgan 2022 yil «31» yanvar № 3-sonli shartnomaga

SPERTIFIKATSIYA

№	Xizmat turi	O'lchov birligi	Miqdori	Summasi	Jami summasi
1	Siqilgan gaz (metan)	Kub m	1,00	1 500 000	1 500 000

Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari:

"Yetkazib beruvchi"

" METAN GAZ BARAKALI " MCHJ
Manzil: Farg'ona vil. Beshariq tumani
Beshariq ko'chasi 3-uy
Bank: Toshkent sh.AT "Aloqabank"ning bosh ofisi
X/R: 20208000505040357001
MFO: 00401 , INN: 306 249 863

Rahbar: _____ M.M.Rasulov

"Sotib oluvchi"

Beshariq tumani hokimlig moliya bo'limi
Manzil: Beshariq shahri Oltin vodiy
ko'chasi 94-uy
Bank: Toshkent shahar Markaziy bank
SHX/R: 10002286030215701131209201
MFO: 00014 INN: 200155309

Rahbar: _____ A.A.Egamnazarov